O‘zbek ayolining aqlu zakosi – ilm, ta’lim va innovatsiya sari!

// 13.10.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zbek-ayolining-aqlu-zakosi-ilm-ta-lim-va-innovatsiya-sari

Toshkent kimyo-texnologiya institutida Xalqaro qizlar kuni munosabati bilan “Ta’lim, ilm va innovatsiyaga bag‘ishlangan – O‘zbek ayolining aqlu zakosi” nomli tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.





Unda institut rahbariyati, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi hamda talaba-yoshlar ishtirok etishdi.





Mazkur tadbirning maqsadi ayollar va qizlarning ta’lim, fan, innovatsiya sohalaridagi o‘rni va hissasini e’tirof etish, yosh avlod qizlarini ilm va ma’rifat sari ilhomlantirish, ularning yetakchilik salohiyatini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Tadbir avvalida tashrif buyurgan mehmonlar institut olimalari tomonidan tayyorlangan ilmiy ishlanmalar hamda innovatsion loyihalar bilan yaqindan tanishdilar.




SERTIFIKAT



Shundan so‘ng mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy va ma’naviy faolligini kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatiga to‘xtalib o‘tildi.Yakunda ilm-fan va innovatsiya yo‘nalishida faol ishtirok etayotgan eng faol olimalar hamda iqtidorli talaba qizlar faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.